



RESPUBLIKAMIZ HUDUDLARIDA TERAK (*POPULUS L.*)
QALAMCHALARNI TAYYORLASH VA EKISH

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li⁴

[muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹](mailto:muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com)

[avazbekakayulbarsov@gmail.com²](mailto:avazbekakayulbarsov@gmail.com)

[nazirjonovi@mail.ru³](mailto:nazirjonovi@mail.ru)

[xumoyunsu@gmail.com⁴](mailto:xumoyunsu@gmail.com)

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Maqolada Terak (*Populus L.*)ning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan va Respublikamiz sharoitlarda qalamchlaridan ko'paytirish va rivojlanishi to'g'risida so'zlangan.

Kalit so'zlar: Terak (*Populus L.*), nihol, agrotexnik talablar, rivojlanish, qalamcha

Annotation: The article provides information about the history of the origin of the poplar plant (*Populus L.*), and examines issues of its propagation and development by cuttings in the conditions of our republic.

Keywords: Poplar (*Populus L.*), germination, agrotechnical requirements, development, cuttings

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o'tkazilgan 2023 yil 7-aprel kuni videoselektor yig'ilishida "Yashil makon" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ham muhokama qilindi. Ma'lumki, loyiha doirasida bahor mavsumida 125 million tup ko'chat ekish rejalashtirilgan bo'lib, aprel oyi yakuniga qadar tumanlardagi yirik mahallalarga 20-30 ming, o'rtalariga - 10-15 ming,



kichiklariga – 3-5 ming, shaharlardagi har bir mahallada ham shuncha tup terak qalamchalari ekish tavsiya etildi. Hozirgi paytda yurtimizning turli iqlim va tuproq sharoitida terakning 40 ga yaqin turi, 90 dan ortiq navi parvarishlangan. Terak ham boshqa ardoqli daraxtlarimiz kabi qadriyatlarimiz timsoliga aylangan. Uni etishtirish bo'yicha esa, qadimdan katta tajriba to'plangan. Qishloqdagi har bir xonadonda osmonga bo'y cho'zgan teraklar shovullab o'sib, havoning sofligini, yangi uylar yog'ochini ta'minlab kelgan. Terak (*Populus L.*)

[toldoshlar oilasiga](#) mansub [daraxtlar turkumi](#) Hozirgi paytda yurtimizning turli iqlim va tuproq sharoitida terakning 40 ga yaqin turi, 90 dan ortiq navi parvarishlab kelinadi terak barcha turdagi daraxtlar orasida eng yaxshi havo tozalovchi hisoblanadi. Karbonat angidridni o'ziga singdirib, igna bargli daraxtlarga nisbatan 10 baravar ko'p kislorod hosil qiladi. Ayni paytda o'zidan zararli mikroblarni o'ldiruvchi fitontsidlar ham ishlab chiqaradi Bu turdagi daraxtlar manzarali bo'lishi va joy tanlamasligi sababli ihota va o'rmon muhofazasi, ko'kalamzorlashtirish ishlarida muhim ahamiyatga ega. Terakning tez o'sishi tabiiy resurslarni qisqa vaqt ichida to'ldirish imkonini beradi. Uning yuz yilgacha yashayligan turlari ham bor Masalan, mirzaterak va oqterak 30 yilgacha rivojlanib, 60-70 yil davomida yashaydi. Yog'ochi 8-10 yilda yetiladi va gektaridan 500–900 kub metrgacha yog'och mahsuloti olinadi. Bu mebel va tsellyuloza-qogoz sanoati uchun muhim xomashyo sanaladi. oshqacha aytganda, uylar va ariqlar yonida, avtomobil` yo'llari va piyodalar. Terak ko'chatini yetishtirishning o'zi moliyaviy manfaat keltiradi. Bizda, asosan, ko'kterak, oqterak, mirzaterak, kaliforniya kabi turlari ekiladi. Terak ko'chatini yetishtirish uchun quydagi usulda qalamcha tayyorlash va yetishtirish tavsiya etiladi.

- terakning bir yillik novdalarini kesish oktyabr oyining oxiri - noyabr oyining boshidan terakda bahorgi vegetatsiya jarayoni boshlangunga qadar amalga oshiriladi;

- Kesib olingan novdalardan 20-25 santimetrlik qalamchalar tayyorlanadi. Qalamchalarni bog' qaychisi bilan 45 daraja ostida kesish lozim. Bu orqali ularning chirishining oldi olinadi;

- qalamchalar erta bahorda kuzgi ekish kabi jo'yaklarga ekiladi va darhol sug'oriladi;

- kuzda tayyorlangan qalamchalar orasi 60-70 sm bo'lishi kerak;
- terak qalamchalari jo'yaklarda 20 santimetrdan qoldirilib, tik holatda qadaladi. Bunda qalamchadagi kurtaklar yuqoriga qaragan holatda bo'lishi, qadalgan qalamchalarda bitta yoki ikkita kurtak tuproq ustida qolishi lozim.



1 – rasm kuzda tayyorlab bahorda ekish uchun tayyorlangan qalamchalar

Terak boshqa barcha turdagi daraxtlar orasida megapolislarda eng yaxshi havo tozalagich vazifasini o'taydi. Yuqorida qayd etilganidek, terak havodan karbonat angidridni yutadi va kislorod ishlab chiqaradi, bu, ayniqsa, osmonni qum-chang qoplagan paytlarda juda asqotadi. barcha turdagi teraklar juda tez o'sadi va shahar uchun foydali hisoblangan yashil massani ortiradi. Bundan tashqari, ular eng qiyin sharoitlarda tirband bo'lgan magistral yo'llar bo'ylab yoki sanoat korxonalari hududida yashab qolishga qodir va o'ta chidamli. Ularning uchib yuradigan tuklari bilan bog'liq muammo aslida juda oson hal qilinadi. Buning uchun tuk hosil qilmaydigan terak turlarini tanlash yoki pitomniklarda faqat ushbu yoqimsiz xususiyatdan mahrum bo'lgan erkak nihollarni ko'paytirishning o'zi kifoya. Terak (onalik tupidagi) paxmog'i ana shu chang va gulchaglarni o'ziga singdirib oladi (adsorbtsiya) va tashuvchi sifatida ko'z va burun shilliq pardalari orqali allergiyaga moyil odamlarda allergik holatni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra, terakning allergenligi bilvosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida, mahalliy tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirilgan allergensiz daraxt va butalar ro'yxati shakllantirildi.



2-rasm Terak qalamchalarni ekilish jarayoni

Unga muvofiq, aholi yashash joylari va yo'l chekkalarida “Mirza terak”, “Qizil terak”, “Tog' terak”, “Turang'il terak”, “Oq terak”, “Bolle terak”, “Kaliforniya teragi”, “Baqa (baxofena) terak” turlari asosida olingan navlar tavsiya qilinadi. Aksincha, allergiyani qo'zg'atishda adsorbentlik xususiyati yuqori bo'lgan “Qora terak” va “Ko'k terak” navlarini ekish tavsiya etilmaydi. Teraklar ekiladigan maydon va uning atrofida sarv, xurmo, zaytun, qayin, yong'oq kabi daraxt va butalarni etishtirish allergiya nuqtai nazaridan maqbul sanalmaydi. Shuningdek, gulchangi allergiya qo'zg'atuvchi hisoblanadigan shuvoq, qichitqi o't kabi yovvoyi o'tlardan terakzorlarni tozalab turish lozim. Terak daraxtlarining allergik ta'sirini kamaytirish maqsadida, ularni kashtan, oddiy eman, dala chinori, oq akatsiya kabi kam allergenli daraxtlar bilan birgalikda ekish maqsadga muvofiq bo'ladi. Terak nafaqat xalq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishida, balki obodonlashtirish, ihota maydonlarini tashkil etish va ekologik tozalikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Lekin u oq yoki ko'k terak bo'lishidan qat'i nazar, mutaxassislarning tavsiyalariga amal qilgan, yer tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ekilsa, yanada foydali bo'ladi, yurtimizni yashillikka burkashga ko'proq xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda bugungi kunda yurtimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish uchun Respublikamiz yerlariga eng ma'qbul daraxt ekish kam xarajat talab qiladi va samarali deb hisoblaymiz.



FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4850-son «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi Qarori
2. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Dendrologiya A.K.Qayumov, E.T.Berdiyev, Toshkent Fan texnologiya 2012 yil B. 25–28
4. <https://agronet.uz/terak-ekish/>
5. <https://uz.women-community.com/12603759-poplar-tips-for-planting-and-care-outdoors>